O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 16 - fevral 43-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 10 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi 404-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 1-10-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 404-sonli qarori hamda shu asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 10 yanvardagi** 1-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-va 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 10 yanvardagi** 1-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yilda Toshkent tumanida obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha manzilli ro‘yxatlar ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Barcha buyurmachi xizmatlariga:

a) ikki oy muddatda 2024-yilda yangidan boshlanadigan loyihalar (obyektlar) bo‘yicha tasdiqlangan loyihaoldi va (yoki) loyiha hujjatlari asosida belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillarini yakunlash va tanlov (tender) g‘oliblari bilan pudrat shartnomalarini tuzish choralarini ko‘rishi;

b) 2024-yil 15-fevralga qadar Dasturning asosiy parametrlarini bajarish, shu jumladan loyihalar (obyektlar) bo‘yicha kapital quyilmalarni

o‘zlashtirishning prognoz ko‘rsatkichlarini choraklar kesimida tasdiqlab, viloyat hokimligiga taqdim etishi.

Bunda:

2024-yilning birinchi yarim yilligida barcha loyihalar (obyektlar) bo‘yicha yillik rejalashtirilgan o‘zlashtirish hajmlarining kamida 40 foizini, shu jumladan yildan yilga o‘tuvchi loyihalar (obyektlar) bo‘yicha kamida 50 foizini bajarilishi;

2024-yilda ishga tushiriladigan ta’lim muassasalari obyektlarini 15-avgustga qadar, issiliq ta’minoti, sog‘liqni saqlash va tibbiy-ijtimoiy muassasalar obyektlarini - 1-oktabrga qadar, ichimlik va oqova suv, avtomobil yo‘llari, ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlar, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari obyektlarini - 1-dekabrga qadar foydalanishga topshirilishi nazarda tutilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi Sh.Salihov Dasturning ijrosi yuzasidan tizimli monitoring o‘rnatilishini, har oyda loyihalar (obyektlar) kesimida muhokamalar tashkil etilishini va yuzaga keladigan masalalarni hal etish choralari ko‘rilishini ta’minlasin, monitoring natijalari yuzasidan har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar tuman hokimligiga axborot kiritib borsin.

5. Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman shtabi (Mirsagatov, Nazarov):

- quyidagilar ustidan tizimli nazorat o‘rnatsin:

Dasturning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ijro etilishi, shu jumladan har bir loyiha (obyekt) bo‘yicha mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishi, qurilish-pudrat ishlari sifatli bajarilishi, xarid qilish tartibtaomillari qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi;

- konsolidatsiyalashgan byudjet mablag‘lari va boshqa markazlashgan manbalar hisobidan moliyalashtirish manbasi aniq bo‘lmagan, loyiha (loyihaoldi) hujjatlari mavjud bo‘lmagan, loyiha va pudrat tashkilotlari davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilmasdan aniqlangan loyihalar (obyektlar) bo‘yicha xarajatlar amalga oshirilmasligi;

- Dastur doirasida 2024-yilda yakunlanishi nazarda tutilgan obyektlar belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilishi;

- Dasturda nazarda tutilgan mablag‘larning asoslanganligi yuzasidan o‘rganish o‘tkazsin va to‘lovlar tahlil natijasi asosida amalga oshirilsin.

6. Tuman hokimi o‘rinbosari (Mirsagatov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining Toshkent tumani filiali (Xayitov.Z), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (Bazarbaev) bilan birgalikda 3 kun muddatda ilovalarda keltirilgan rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilgan obyektlarning manzili, joylashgan (“Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantiriladigan elektron xarita) joyini tasdiqlangan holda buyurmachilarga taqdim etish choralarini ko‘rsin.

7. Tuman hokimi o‘rinbosari (Mirsagatov), bo‘lim va tashkilot rahbarlari hamda buyurtmachi xizmatlari vakillari bilan birgalikda;

uch kun muddatda tegishli foydalanuvchi (ekspluatatsiya qiluvchi) tashkilotlar bilan birga yangidan quriluvchi, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash yuzasidan texnik topshiriqlarni puxta va zamonaviy talablar asosida tayyorlanishini ta’minlasin;

o‘n kun muddatda loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun belgilangan tartibda loyiha tashkilotlarini aniqlasin;

joriy yilning 1-fevralga qadar manzilli ro‘yxatlarga muvofiq ishlab chiqariladigan loyiha-smeta hujjatlarini belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tqazsin.

8. Buyurmachilarga:

- Davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berish hamda, loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o‘rnatilgan tartibda shartnoma tuzish;

- loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun litsenziyaga ega korxonalarga buyurtma berish;

- loyixa-smeta hujjatlari ishlab chiqilgandan sung belgilangan tartibda ekspertiza xulosalarini olib, viloyat hokimligiga taqdim etish vazifalari yuklatilganligi inobatga olinsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining

birinchi o‘rinbosari Sh.Salixov hamda tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 16-fevraldagi
43-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024 yilda Toshkent tumanida ob’ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha

MANZILLI RO‘YHAT

№	Ob’ekt nomi va manzili	Amalga oshirish muddati	O‘lchov birligi	Loyiha quvvatli	2024 yilga topshiriladigan ob’ekt (quvvat)	Shu jumladan:			2024 yil uchun limit, mln.so‘m	Dasturga kiritilishi uchun asos
						yangi qurilish	rekonstruksiya	mukammal ta’mirash		
1	“Xalimko‘p” MFYda yangi maktab qurilish	2023-2024	o‘rin	330	330	330			12 847,0	XDTVK qarori
2	“Ibrat” MFY 26-sonli maktab	2024	o‘rin	660	660	660			8 580,0	VM Rayosat 83-bayon
3	“Qorasaroy” MFY 17-sonli maktab	2024	o‘rin	950	950	480		470	11 175,0	VM Rayosat 108-bayon
4	“Ayriota” MFY 5-sonli maktab	2023-2024	o‘rin	340	340	120		220	10 346,0	VS Rayosat 49-bayon
5	“Chig‘atoy” MFY 18-sonli bog‘cha	2024	o‘rin	120	120		120		4 680,0	O‘RP PQ-98-qarori
6	Tuman SEOJS bo‘limi	2024	ob’ekt	1	1		1		6 000,0	VM Rayosat 83-bayon
7	Abduraxmonov OShP	2024	qatnov	100	100			100	2 500,0	VM Rayosat 83-bayon
8	4R4 “Toshkent sh.Keles sh.-Qozoqkentsoy q.-M39 avtomobil yo‘li (820 km)” avtomobil yo‘lining 0-12 km qismini rekonstruksiya qilish	2020-2025	km	12,0					20 000,0	VMning 163-F farmoyishi

9	4R4a “4R4 “Toshkent sh. — Keles sh. — Qozoqkentsoy q. — M39 avtoyo‘li (820 km)” avtomobil yo‘lidan Sariyog‘och shahriga kirish” avtomobil yo‘lining 0-6 km qismini rekonstruksiya qilish	2020-2024	km	6,0	6,0		6,0		5 000,0	VMning 163-F farmoyishi
10	"UZYARN HOUSE TEXTILE" MChJ joylashgan hududiga tashqi elektr tarmog‘ini qurish	2023-2024	km	3,5	3,5	3,5			3 245,8	Aholida resp.idoralari tomonidan

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 16-fevraldagi
43-10-212-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2024 yilda Toshkent tumanida ob’ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha

MANZILLI RO‘YHAT

№	Ob’ekt nomi va manzili	Amalga oshirish muddati	O‘lchov birligi	Loyiha quvvatli	2024 yilga topshiriladigan ob’ekt (quvvat)	Shu jumladan:			2024 yil uchun limit, mln.so‘m	Dasturga kiritilishi uchun asos
						yangi qurilish	rekonstruksiya	mukammal ta’mirash		
1	“Xalimko‘p” MFYda yangi maktab qurilish	2023-2024	o‘rin	330	330	330			12 847,0	XDTVK qarori
2	“Ibrat” MFY 26-sonli maktab	2024	o‘rin	660	660	660			8 580,0	VM Rayosat 83-bayon
3	“Qorasaroy” MFY 17-sonli maktab	2024	o‘rin	950	950	480		470	11 175,0	VM Rayosat 108-bayon
4	“Ayriota” MFY 5-sonli maktab	2023-2024	o‘rin	340	340	120		220	10 346,0	VS Rayosat 49-bayon
5	“Chig‘atoy” MFY 18-sonli bog‘cha	2024	o‘rin	120	120		120		4 680,0	O‘RP PQ-98-qarori
6	Tuman SEOJS bo‘limi	2024	ob’ekt	1	1		1		6 000,0	VM Rayosat 83-bayon
7	Abduraxmonov OShP	2024	qatnov	100	100			100	2 500,0	VM Rayosat 83-bayon
8	4R4 “Toshkent sh.Keles sh.-Qozoqkentsoy q.-M39 avtomobil yo‘li (820 km)” avtomobil yo‘lining 0-12 km qismini rekonstruksiya qilish	2020-2025	km	12,0					20 000,0	VMning 163-F farmoyishi

9	4R4a “4R4 “Toshkent sh. — Keles sh. — Qozoqkentsoy q. — M39 avtoyo‘li (820 km)” avtomobil yo‘lidan Sariyog‘och shahriga kirish” avtomobil yo‘lining 0-6 km qismini rekonstruksiya qilish	2020-2024	km	6,0	6,0		6,0		5 000,0	VMning 163-F farmoyishi
10	"UZYARN HOUSE TEXTILE" MChJ joylashgan hududiga tashqi elektr tarmog‘ini qurish	2023-2024	km	3,5	3,5	3,5			3 245,8	Aholida resp.idoralari tomonidan